

AXLOQIY DILEMMALARNING TALABALARDA TAHLILIIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ziyodov Farruh Saodilla o'g'li,
Qarshi davlat universiteti
Tayanch doktoranti

Rezyume. Zamonaviy yondashuvlarga muvofiq shaxsning yetukligini belgilovchi mezonlardan biri sifatida uning tahliliiy va tanqidiy baholash qobiliyatiga egaligi e'tirof qilinmoqda. Zero, raqamli jamiyatda inson kapital, xususan, shaxs intellektual qobiliyatining yuqoriligi qiymati baland mahsulot sifatida baholanmoqda. Shu bois XXI asr ta'limi oldiga ta'lim oluvchilarning tahliliiy va tanqidiy qobiliyatni rivojlantirish asosida yetuk mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtma qo'yilmoqda. Talabalarda tahliliiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, integral yondashuvni taqozo qiladi. Ingliz klassik adabiyoti vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish qayd etilgan ijtimoiy buyurtmani to'la bajarilishi uchun xizmat qiladi. Zero, ingliz klassik adabiyoti bo'yicha tanlangan badiiy asarlar bo'yicha axloqiy dilemma bo'yicha muhokamalarni tashkil qilish talabalarining tahliliiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Maqolada ana shu to'g'risida so'z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: fikrlash, tahliliiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, dilemma, axloqiy dilemma, rivojlantirish.

Резюме. В соответствии с современными подходами одним из критериев зрелости личности признаётся наличие у неё способности к аналитической и критической оценке. Действительно, в цифровом обществе человеческий капитал, в частности высокий уровень интеллектуальных способностей личности, рассматривается как продукт высокой ценности. В связи с этим перед образованием XXI века ставится социальный заказ – подготовка зрелого специалиста на основе развития у обучающихся аналитического и критического мышления. Развитие у студентов аналитического и критического мышления является сложным процессом, требующим интегрального подхода. Использование английской классической литературы как средства формирования духовно-нравственных идеалов у студентов способствует полноценному выполнению данного социального заказа. В частности, организация обсуждений моральных дилемм на основе отобранных художественных произведений английской классической литературы имеет особое значение для развития аналитического и критического мышления студентов. В статье рассматриваются именно эти вопросы.

Ключевые понятия: мышление, аналитическое мышление, критическое мышление, дилемма, моральная дилемма, развитие.

Abstract. According to modern approaches, one of the key criteria of personal maturity is the ability to perform analytical and critical evaluation. Indeed, in the digital society, human capital—particularly a high level of an individual's intellectual ability – is regarded as a highly valuable asset. Therefore, the education system of the 21st century faces a social demand to prepare competent professionals through the development of students' analytical, critical, and creative thinking skills. The development of analytical and critical thinking in students is a complex process that requires an integrated approach. The use of English classical literature as a means of fostering students' moral and ethical ideals contributes to fully meeting this social demand. In particular, organizing discussions of moral dilemmas based on selected works of English classical literature plays a significant role in developing students' analytical and critical thinking abilities. This article addresses these issues.

Key words: thinking, analytical thinking, critical thinking, dilemma, moral dilemma, development.

Kirish. Bugungi kunda o'quv munozaralarini tashkil qilishda pedagogik muammolarni bayon qilishning zamonaviy shakli sifatida axloqiy dilemmadan keng va samarali foydalanish tobora ommalashmoqda. Xo'sh, axloqiy (yoki ma'naviy-axloqiy)

dilemmaning o'zi nima va u ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?

Axloqiy dilemma – “yechim sifatida taqdim qilingan bir-biriga bog‘liq ikkita variantdan ixtiyoriy birining tanlanishi ham muayyan axloqiy qoidalarning buzilishini tavsiflaydigan muammoli vaziyat va axloqiy tanlov” [3]; “birini tanlash kerak bo‘lgan ikkita o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi yechimni o‘z ichiga olgan hukm yoki xulosa; ikkita qarama-qarshi imkoniyat orasidan tanlash bir xil darajada qiyin bo‘lgan taklif” [5]; “axloqiy mazmunga ega muammo bo‘yicha ikki yoki undan ortiq variantli yechimdan birini tanlash taqozo etiladigan, biroq, qaysi variant tanlanishidan qat’i nazar baribir qandaydir salbiy jihat saqlanib qolishini ifodalovchi holat” [6, – c. 105].

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda axloqiy dilemma, tanqidiy fikrlash va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, Philip Footning axloqiy dilemma nazariyasiga oid qarashlari, Ioann Gratianning axloqiy-huquqiy qarashlari hamda Thomas Aquinasning ma'naviy tanlov haqidagi fikrlari asos sifatida o‘rganildi. Shuningdek, munozara metodlari va faol o‘qitish texnologiyalariga oid pedagogik tadqiqotlar ham tahlil qilindi. O‘rganilgan adabiyotlar axloqiy dilemmalar talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot integrativ va amaliy yondashuv asosida olib borildi. Ilmiy manbalarni o‘rganishda tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tajriba-sinov jarayonida talabalar kichik guruhlariga ajratilib, ingliz klassik adabiyoti namunalaridagi axloqiy dilemmalar asosida munozaralar tashkil etildi. Kuzatish, savol-javob, munozara va refleksiya metodlari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash, dalillash va muqobil yechimlarni baholash ko‘nikmalari o‘rganildi. Olingan natijalar asosida axloqiy dilemmalarning talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkuri hamda tahliliy fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati baholandi.

Tahlil va natijalar. O‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy dilemmalar jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarni tartibga solishga, ta'lim oluvchilar tomonidan huquqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlar bilan bog‘liq holatlar mazmunini tushunish, tahlil qilish, shu kabi hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish uchun qarorlar qabul qilish malakalarini samarali o‘zlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shunga ko‘ra “axloqiy dilemmalar kishilik jamiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular ijtimoiy subyektlarga tanqidiy fikrlash, o‘zgalarga hamdard bo‘la olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi ichki va tashqi nizolarni keltirib chiqaradi. Bu tarzda hayotiy vaziyatlarni o‘rganish shaxs hayotiga ta'sir qiluvchi murakkab axloqiy muammolar mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuni yodda tutish kerakki, axloqiy dilemma nafaqat nazariy-konstruktiv, balki shaxsiy va kasbiy faoliyatda duch kelinadigan haqiqatdir. Axloqiy dilemmalar ijtimoiy subyektlarga huquqiy me'yorlar va qoidalar amal qiladigan chegaralarni belgilab olish uchun xizmat qiladi” [4].

Manbalarda ko'rsatilishicha, dastlabki axloqiy dilemmalar XII asrda shakllantirilgan. Aynan shu davrda Italiyaning Bolonya shahrida yashab, o'qituvchilik qilgan huquqshunos-rohib Ioann Gratsian tomonidan 1139-1150 yillar orolog'ida yozilib, 1471 yilda Strasburgda chop etilgan huquqiy asar – “Gratsian dekreti” (lot. “Concordia discordantium canonum”; “Bir-biriga zid qonunlar uyg'unligi”) [7, – c. 13-40]da jamiyatda bo'ysunilishi majburiy bo'lgan qonuniy talablarning axloqiy mohiyatining yoritilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Huquqshunos har bir shaxs axloqiy dilemmalarda ifodalangan holatlarga duch kelganida mavjud ikkita salbiy vaziyatlar orasidan nisbatan ijtimoiy va shaxsiy zarari kamroq bo'lgan yechimni tanlashi kerak, deb hisoblagan. Gratsian shu tariqa har qanday jinoyat, unga beriladigan jazoning negizida ham axloqiy talablar yotishiga urg'u beradi hamda shaxsning jinoiy xatti-harakatini baholashda ham nafaqat yuridik, shu bilan birga axloqiy talablarning ham inobatga olinishi shart [1, – c. 59-63], deb hisoblaydi.

1967 yilda angliyalik faylasuf Filipp Fut ijtimoiy o'zgarishlar nuqtayi nazariydan axloqiy dilemmalarni asoslashga harakat qilgan. Muallif “Poyezd muammosi” nomi bilan quyidagi muammo va uning yechimlari (dilemmalar)ni ilgari suradi: “Og'ir, boshqaruvni yo'qotgan poyezd rels bo'ylab tez kelyapti. Yo'lida relsga bog'langan holda besh kishi yotibti. Sizda poyezdning yo'nalishini o'zgartirish imkoniyati bor. Agar dastakni bossangiz, poyezd qo'shimcha yo'lga o'tib, harakatlanadi. Afsuski, qo'shimcha yo'lida ham relsga bir kishi bog'lab qo'yilgan. Bu vaziyatda qanday yo'l tutasiz?” [3].

Badiiy adabiyotlarda axloqiy dilemmalardan keng foydalaniladi. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, kitobxon ularni tahlil qilish orqali “yechim sifatida taklif qilingan variantning qaysi biri imkon qadar axloqiy talablarni kamroq darajada chetlab o'tish imkonini berishi yuzasidan mulohaza yurita olishi” [3] ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini o'zlashtira olishi zarur.

Ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayonida mutolaa qilingan badiiy asarlarning mazmuni, g'oyalarini tahlil qilishda “munozaradan foydalanish talabalarga yangi ma'lumotlar olish va kompetentligini oshirish, o'z g'oyalarining to'g'riligini sinovdan o'tkazish (tekshirib ko'rish), ishonchliligini baholash hamda muloqot malakalarini rivojlantirish imkonini berishiga ishonch hosil qilindi” [2, – c. 105].

Redyard Kiplingning “Qirol bo'lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”), Jek Londonning “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”), Jek Londonning “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”), O'.Genrining “Magining tuhfasini” (“The Gift of the Magi”), Ernest Xemingvuyeyning “Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”) asarlari bo'yicha quyidagi axloqiy dilemmalar shakllantirildi:

Tajriba-siniv ishi uchun tanlangan asarlar bo'yicha axloqiy dilemmalar

№	Mualliflar	Asarlar	Axloqiy dilemmalar
---	------------	---------	--------------------

1.	Kipling Redyard	Qirol bo'lishni orzu qilgan kishi" ("The Man Who Would Be King")	Bordiyu, shaxs tartibsiz, parokanda jamiyatda tartib o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lsa, ammo buni amalga oshirish uchun o'zini "ilohiy shaxs" deb ko'rsatishga, yolg'on gapirishga, aholiga tahdid qilishga majbur bo'lsa, bu vaziyatda u tomonidan shakllantirilgan hokimiyatni yoqlash mumkinmi?
2.	London Jek	"Hayotga muhabbat" ("Love of Life")	Garchi tanlangan vosita axloqiy tamoyillarga zid bo'lsa ham omon qolish uchun shaxsning bu vositadan foydalanishi qanchalik to'g'ri?
3.	London Jek	"Gulxan yoqish" ("To Build a Fire")	Tajribali kekxa kishining maslaahatiga quloq solmay, ustiga ustak tabiat qonunlarini inkor etgan holda o'ziga ortiq darajada ishonib, hayotini xavf ostiga qo'yish – mardlikmi yoki mas'uliyatsizlik?
4.	O'.Genri	"Magining tuhfası" ("The Gift of the Magi")	Yaqin insoni uchun o'zining eng qimmatli narsasidan voz kechish – haqiqiy fidoiylıkmı yoki axmoqona qurbonlik?
5.	Xeminguyey Ernest	"Kilimanjarodagi qor" ("The Snows of Kilimanjaro")	Iste'dodli va imkoniyatlari yuqori bo'lgan shaxsning to'kis, dabdabali hayotni tanlab, o'z qobiliyatini namoyon eta olmasligı – bu uning ma'naviy huquqimi yoki jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyatdan qochishmi?

Tajriba-siniv ishi uchun tanlangan asarlar bo'yicha munozara uchun taklif qilingan axloqiy dilemmalarning oqilona yechimini tanlashda talabalarning bilish faoliyati samarali bo'lishi uchun metodik ko'rsatmalar shakllantirildi. Ular quyidagilardan iborat:

**Badiiy asarlar bo'yicha axloqiy dilemmalarning
oqilona yechimini topish yuzasidan metodik ko'rsatmalar:**

1. Dilemmalar bilan batafsil tanishib chiqing.
2. Har bir dilemmaning o'zingiz uchun ahamiyatini baholang.
3. Axloqiy dilemma taalluqli bo'lgan muammo bo'yicha guruh a'zolari bilan kelishgan holda kamida qo'shimcha ikkita yechimni toping.
4. Guruh a'zolari bilan hamkorlikda barcha to'rtta yechimning maqbulligini dalillarga tayangan hamda har bir dalilni alohida qayd etgan holda tahlil qiling.
5. To'rtta yechim bo'yicha javob variantlarining maqbulligini aniqlashtiruvchi savollar yordamida guruh a'zolari bilan hamkorlikda qayta tekshiring.
6. Guruhda barcha to'rtta yechimning oqilona ekanini yuzasidan har bir a'zoning shaxsiy qarashlari orqali asoslanishini ta'minlang.
7. Guruh ichida o'zaro "raqiblar"ni shakllantirgan holda barcha to'rtta yechimning oqilona ekanini inkor qiling.
8. Guruh tomonidan yagona maqbul yechimni belgilang.
9. Belgilangan yechimni akademik guruh muhokamasiga qo'ying.
10. Munoraza jarayonida guruh yechimining to'g'riligini guruh yetakchisi tomonidan bosiqlik bilan dalillarga tayangan holda asoslanishiga erishing.

Tadqiqot davrida respondent-talabalar kichik guruhlarda talangan asarlar bo'yicha axloqiy dilemmalarning yechimlarini topishga jalb qilib, yuqorida qayd etilgan metodik ko'rsatmalar bo'yicha ishlari ta'minlandi. Kichik guruhlar tomonidan axloqiy dilemmalar

yuzasidan bir necha variantdagi yechimlar taqdim qilindi. Har bir tajriba maydoni bo'lgan OTMda respondent-talabalar ishtirokida kichik guruhlarning axloqiy dilemmalar bo'yicha yechimlari bo'yicha munozaralar tashkil qilindi. Munozaralarning yakunlariga ko'ra kichik guruhlarning yechimlari asosida yagona maqbul yechimlar shakllantirildi. Xususan:

1. Redyard Kiplingning “Qirol bo'lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”) asari bo'yicha axloqiy dilemmaning yechimi. Parokanda jamiyatda tartib o'rnatish – ijobiy holat. Agar shaxs bunday sharoitda tizimni oqilona shakllantirsa, tartib-qoida va xavfsizlikni ta'minlay olsa, uni oqil yetakchi sifatida qabul qilish mumkin.

Biroq, hokimiyatga yolg'on (o'zini “ilohiy shaxs” deb ko'rsatish), qo'rqitish va manipulyatsiyaga asoslangan holda erishilsa, bu hokimiyat omonat va hatto xavfli bo'ladi. Chunki yolg'on asosida yaratilgan “jamiyat” keyin ham yolg'onlarga asosida boshqariladi. Yolg'on esa bir kunmas bir kun fosh bo'ladi va hokimiyatning qulashiga olib keladi. Shu sababli natija qanchalik ijobiy ko'rinmasin, agar u yolg'on va qo'rquvga asoslangan bo'lsa, bunday hokimiyatni oqlab bo'lmaydi; u barqaror emas va axloqiy jihatdan ham shubhali.

2. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”) asari bo'yicha axloqiy dilemmaning yechimi. Qahramon ochlik, charchoq va yolg'izlik sharoitida tirik qolish uchun deyarli barcha kuchini safarbar qiladi. Uning sherigi esa uni tashlab ketadi. Qahramon ochlik, charchoq va og'riq ichida qolganda u faqat bitta narsaga – hayotini saqlab qolishga intiladi. Shu jarayonda u avvalgi “oddiy hayotidagi” axloqiy qoidalardan uzoqlashib boradi va yashash uchun kurashadi, hayotini saqlab qolishga intiladi. Unda ba'zan tirik qolish istagi ongi berayotgan ko'rsatmalar: nima bo'lganida ham tirik qolishing kerak, buning uchun barcha imkoniyatlardan foydalan va hokazo kabilardan ham ustun keladi. Zero, tirik qolishga intilish nafaqat insonga, balki barcha tirik mavjudotlarga xos eng kuchli tabiiy kuchlardan biri. Favqulodda vaziyatda esa ba'zan axloqiy qarashlar ikkinchi darajali ahamiyat kasb eta boshlaydi. Lekin, baribir bu “hamma narsa mumkin” degani emas. Inson har qanday sharoitda ham insoniyligini butunlay yo'qotib qo'ymasligi, aksincha, uni saqlab qolishi kerak.

Shaxsning axloqiy tamoyillarga zid vositalardan foydalanishi ba'zan biologik jihatdan tushunarli bo'lishi mumkin, lekin bu har doim “to'g'ri” deb baholanmaydi. Haqiqiy inson hayot uchun kurashar ekan, u nafaqat jisman, balki ma'nan ham qanday inson bo'lib qolishini tanlaydi.

3. Jek London “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”) asari bo'yicha axloqiy dilemmaning yechimi. Mardlik va mas'uliyatsizlik – aslida bir-biriga juda yaqin va ular o'rtasidagi chegarani oson buzib o'tish mumkin. Asar ana shu g'oyaga tayanadi. Bir tomondan, qahramon qo'rquvni yengib o'tadi, yakka o'zi yo'lga chiqadi, o'z kuchiga ishonadi. Shu jihatlar “jasorat”ga o'xshaydi. Ikkinchi tomondan, qahramon o'z imkoniyatini ortiq baholab, xavfni bilgan holda uni inkor qiladi, tajribali kishining maslahatini rad etadi, tabiat qonunlarini “yengish” mumkin deb o'ylaydi. Bu esa tabiatni

mensimaslik, boshqalarning hayotiy bilim va tajribalarini rad etish, xavfni to‘liq hisobga olmaslik deganidir. Tabiat qonunlari oldida “mardlik” emas, balki ularning tan olinishi muhim. Zero, tabiat hissiyotga emas, fizikaviy qonunlarga bo‘ysunadi.

Asar shunday xulosaga kelish uchun imkoniyat yaratadi: tabiat – insonning irodasiga bo‘ysunmaydi; hayotdagi eng muhim himoya vositasi bu – bilim va hayotiy tajribadir; insonning kuchi imkoniyatlari cheklangan ekanini tan olishda ko‘rinadi; inson qanchalik kuchli bo‘lmasin, tabiat qonunlarini inkor qilish – jasorat emas, balki halokatga olib boradigan xatodir.

4. O‘.Genrining “Magining tuhfası” (“The Gift of the Magi”) asari bo‘yicha axloqiy dilemmaning yechimi. Asar mazmunida natijaga ko‘ra garchi ular sotib olgan sovg‘alar amaliy jihatdan foydasiz bo‘lishiga qaramay, Della va Jimning bir-birlari uchun o‘zlarining eng qimmatli narsalaridan voz kechishlarini bir qarashda “axmoqlik” bo‘lib tuyulsa ham haqiqiy fidoiylık sifatida talqin qilinadi. Binobarin, masalaning asl mohiyati natijani yoritish emas, balki qahramonlarning ezgu niyat qilishlari hamda bir-birlarini qadrlay olishlarini ko‘rsatishdan iborat.

Agar inson o‘z yaqinini xursand qilish, unga bo‘lgan mmehrini ifodalash uchun ongli, ixtiyoriy ravishda qurbonlik qilsa – mana bu haqiqiy fidoiylık. Zero, u moddiy manfaatdan ustun ruhiy, ma’naviy-axloqiy yetuklikni namoyon qila oldi.

Qahramonlarning o‘zlari uchun qimmatli bo‘lgan “narsalari”dan voz kechishlari majburiyat yuzasidan, kimningdir qistovi bilan yoki o‘zini ko‘rsatib qo‘yish (o‘z “qahramonligi”, “fidoiyligi”ni ta’kidlash) uchun bo‘lganida edi, u holda bunday harakatni axmoqona qurbonlik deb hisoblash mumkin bo‘lardi.

Demak, Della va Jim “axmoq” emas, balki oqil kishilardir. Chunki ular bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro mehrni moddiy narsalardan ustun qo‘ya oldi. Muhim jihati shundaki, ular uchun “boy berilgan” narsalari emas, balki bir-birlariga bo‘lgan muhabbatlari aziz va qadrlı. Bir qarashda Della va Jimning harakatlar mantiqsizdek tuyulishi mumkin, ammo, ma’naviy nuqtayi nazardan bu harakatlar haqiqiy fidoiylıkning yorqin namunasi dir.

5. Ernest Xemingueyning “Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”) asarlar bo‘yicha dilemmaning yechimi. Asar qahramoni o‘zining iste’dodli ekanini biladi. Ammo qulay yashash sharoiti, boylık va dabdabali hayotni tanlab, ijodiy qobiliyatini to‘la namoyon eta olmaydi. Vafoti oldidan esa imkoniyatining boy berganidan qattiq pushaymon bo‘ladi. Yozuvchi bir-biriga zid ikki xil yondashuvni ilgari suradi: bir tomondan, har kimning hayoti o‘zining individual mulk, jamiyatniki emas. Shu bois inson o‘z hayot yo‘lini o‘zi belgilaydi – bu uning erkin tanlovi; u o‘z qobiliyatidan foydalanishi ham foydalanmasligi ham mumkin; bu borada bu ikki yo‘ldan birini tanlashga uni hech kim uni majbur qila olmaydi; ikkinchi tomondan, qobiliyat va iste’dod – faqat shaxsiy ne’matgina sanalмай, ma’lum ma’noda jamiyatga ham tegishli bo‘lgan qiymatbaho potensial hamdir. Shu sababli shaxsning o‘z iste’dodini namoyon qilmasligi – imkoniyatni boy berish, hatto, qaysidir ma’noda o‘z burchini ado etishdan qochish sifatida baholanadi.

Muammo faqat shaxsning “tanlov erkinligi”ga egaligidagina emas, balki tanlovning oqibati bilan ham belgilanadi. Garchi asar qahramoni tanlov yo‘lini erkin tanlagan bo‘lishiga qaramay, umrining yakunida qattiq pushaymon bo‘ladi va qalbida ichki bo‘shliq mavjudligiga ishonch hosil qiladi. U, go‘yoki, umr yo‘lini belgilashda o‘zining tanlash huquqidan to‘la foydalangan bo‘lishiga qaramay, ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazardan o‘zining iste’dodini “sotganiga”, boylikka, hashamdor hayotga almashtirganiga ishonadi. “Men behuda yashadim” degan ichki hissiyot paydo bo‘ladi, u iste’dodni yo‘qotishni faqat shaxsiy yo‘qotish emas, balki ma’naviy yo‘qotish sifatida his qiladi.

Tadqiqot jarayonida tanlangan badiiy asarlar asosida axloqiy dilemmalarni muhokama qilish talabalarning ma’naviy-axloqiy tafakkurini shakllantirishda juda muhim pedagogik vosita bo‘lib, xizmat qildi. Ularni kichik guruhlarda o‘zaro hamkorlikda fikrlashga, dalillarni taqqoslashga va oqilona, maqbul yechimlarni topishga undadi. Asarlarda ilgari surilgan tirik qolishga intilish va axloq tamoyillar o‘rtasidagi ziddiyat, shaxsiy erkinlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat, iste’dod va umrni behuda o‘tkazish o‘rtasidagi qarama-qarshilik kabi holatlar talabalar tomonidan insoniylik “qoidalari”, axloqiy qadriyatlarining mohiyatini anglanishiga yordam berdi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, tanlangan asarlar bo‘yicha shakllantirilgan axloqiy dilemmalar va ularning yechimlari talabalar uchun shunchaki axloqiy mavzulardagi muhokamlar sifatida namoyon bo‘lmay, balki muhim hayotiy model, ya’ni, talabalarga axloqiy qoidalarni o‘rgatish vosita emas, balki ularni ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazardan fikrlashga o‘rgatish vazifasini bajardi.

Xulosa. Axloqiy dilemmalar asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish mexanizmlari: empatiya (boshqalarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini anglash va tushuna olish qobiliyati); axloqiy tafakkur (har qanday “to‘g‘ri qaror” real shart-sharoit nuqtayi nazaridan oqilona yondashuv natijasi emas, axloqiy tamoyillar shunchaki o‘ylab topilgan g‘oyalar emas, balki tizimlashtirilgan, qat’iy belgilab qo‘yilgan va jamiyat tomonidan jamoatchilik nazorati ostida tartibga solinadigan kodeks ekani); qadriyatlar iyerarxiyasi (ustuvor qadriyatlar tizimi)ga ega bo‘lish; tanqidiy fikrlash qobiliyati (dalillarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni topish, ularni o‘zaro solishtirish, mustaqil xulosa chiqarish malakasi)ni, shuningdek, ma’naviy-axloqiy mas’uliyat hissi oshirish (insonning har qanday tanlovi faqatgina shaxsiy xarakterga ega bo‘lib qolmay, uning jamiyat oldida javobgar ham ekanini anglatishiga oid qarashni mustahkamlash) kabilar shakllantirildi. Natijada axloq talabalar tomonidan “qoidalar to‘plami” sifatida emas, balki “hayotiy tanlovlar madaniyati” deya qabul qilinishiga erishildi.

Shunday qilib, tanlangan badiiy asarlardagi axloqiy dilemmalar talabalar ongida inson hayoti faqat oddiy qarorlar zanjiri emas, balki har bir tanlov ma’naviy oqibatga ega bo‘lgan murakkab jarayon ekanini anglatadi. Asarlar qahramonlarining taqdiri orqali respondent-talabalar axloqiy tanlovlarning muayyan oqibatga olib kelishini, har bir qaror shaxsning ma’naviy qiyofasini shakllantirishini, eng muhimi, haqiqiy yetuklik o‘z

huquqlarini bilish, manfaatini ko'zlashdangina iborat bo'lmay, balki jamiyatga xizmat qilish bilan ham belgilanishini ham anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кондратьева А.Н. К вопросу об истории создания “Декрета Грациана” // Ж. Правовое государство: теория и практика. – М.: 2018. - № 1 (51). – С. 59-63.
2. Линник А.А. Дискуссия и иные активные формы учебной деятельности и их использование в преподавании дисциплины “История государства и права зарубежных стран” // Науч.-мет.эл.ж. Концепт. – Казань: 2013. - № 1 (январь). – С. 105.
3. Мораль / Обществоведение. 10 класс // <https://profil.adu.by/mod/book/view.php?id=3420&chapterid=9969>.
4. Понимание и анализ моральных дилемм // <https://tobiz.net/support/ponimanie-i-analiz-moralnyh-dilemm>.
5. Понятие о дилемме способы принципы и подходы к разрешению нравственных дилемм // <https://studfile.net/preview/4593014/page:11>.
6. Разин А.В. Моральные дилеммы: причины возникновения и способы разрешения // Ж. Дискурсы этики. Альманах. – СПб.: 2013. – № 1. Вып. 4 (5). – С. 105.
7. Dougherty M.V. Moral dilemmas in medieval thought: From Gratian to Aquinas. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – С. 13-40.

